



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

BUXORO VA QO‘QON XONLIGI MUNOSABATLARIDA SHARQIY TURKISTON OMILINING GEOSIYOSIY AHAMIYATI (XIX ASRNING 20–30- YILLARI)

Hotamova Sevara Sulaymon qizi

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asrning 20–30-yillarida Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi munosabatlarida Sharqiy Turkiston omilining geosiyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Muhammadalixon davrida Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston yo‘nalishidagi tashqi siyosati, “xo‘jalar masalasi” va savdo-iqtisodiy manfaatlari o‘rganiladi. Shuningdek, Jahongirxo‘ja harakatining ta‘siri, Qo‘qon–Sin munosabatlari hamda 1832-yilgi bitimning ahamiyati manbalar asosida yoritiladi. Natijada Qo‘qon xonligi siyosatining harbiy, diplomatik va iqtisodiy omillar uyg‘unligiga asoslangani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi, Sharqiy Turkiston, Jahongirxo‘ja, Sin imperiyasi, Muhammadalixon, Amir Nasrulloh, diplomatiya, savdo aloqalari, geosiyosat, harbiy yurishlar, 1832-yil bitim.

ТУРКЕСТАНА В ОТНОШЕНИЯХ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА И КОКАНДСКОГО ХАНСТВА (20–30-Е ГОДЫ XIX ВЕКА)

Хотамова Севара Сулаймон кизи

Бухарский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В статье анализируется геополитическое значение фактора Восточного Туркестана во взаимоотношениях Бухарского эмирата и Кокандского ханства в 20–30-е годы XIX века. Особое внимание уделено внешней политике Кокандского ханства в период правления Мухаммад Али-хана, включая «вопрос ходжей» и торгово-экономические интересы. Рассматривается влияние движения Джахангир-ходжи, а также значение договора 1832 года. В результате показано, что политика Кокандского ханства основывалась на сочетании военных, дипломатических и экономических факторов.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Кокандское ханство, Амир Насрулла, Мухаммад Али-хан, Восточный Туркестан, Джахангир-ходжа, Цинская империя, дипломатия, геополитика, военные походы, торговые связи, политическое соперничество.

THE GEOPOLITICAL SIGNIFICANCE OF THE EASTERN TURKESTAN FACTOR IN THE RELATIONS BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKAND KHANATE (1820S–1830S)

Hotamova Sevara Sulaymon qizi

Bukhara State University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the geopolitical significance of the Eastern Turkestan factor in the relations between the Bukhara Emirate and the Kokand Khanate in the 1820s–1830s. Particular attention is paid to the foreign policy of the Kokand Khanate during the reign of Muhammad Ali Khan, including the “Khoja issue” and trade-economic interests. The study examines the impact

of Jahangir Khoja's movement, and the significance of the 1832 agreement. It concludes that the policy of the Kokand Khanate was based on a combination of military, diplomatic, and economic factors.

Keywords: Bukhara Emirate, Kokand Khanate, Amir Nasrullah, Muhammad Ali Khan, Eastern Turkestan, Jahangir Khoja, Qing Empire, diplomacy, geopolitics, military campaigns, trade relations, political rivalry.

XIX asrning birinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida murakkab va ko'p qirrali geosiyosiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Bu davrda Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi munosabatlar nafaqat o'zaro siyosiy raqobat, balki Sharqiy Turkiston hududida yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllandi. Ayniqsa, Muhammadalixon davrida Sharqiy Turkiston omili Qo'qon tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib, xonlikning geosiyosiy strategiyasida muhim o'rin egalladi. Bu holat Qo'qon xonligining nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro savdo va siyosiy tizimda faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lishga intilganini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot tarixiy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy usul, tizimli tahlil, sabab-oqibat tahlil hamda manbashunoslik yondashuvi qo'llanildi.

Tadqiqotning manba bazasini XIX asr voqealarini aks ettiruvchi birlamchi va ikkilamchi manbalar tashkil etadi. Jumladan, Mirza Shams Buxoriyning memuar xarakteridagi asari, Muhammad Hakimxonning tarixiy bayonlari hamda Tojir Xo'jandiy asarlari orqali voqealarning ichki jarayonlari va mahalliy siyosiy muhit yoritildi. Shu bilan birga, Vey Yuan tomonidan qayd etilgan xitoy manbalari asosida Sin imperiyasining Sharqiy Turkistondagi harbiy-siyosiy faoliyati tahlil qilindi.

Rus va Yevropa tadqiqotchilarining ishlari, xususan, B.P. Gurevich, V.S. Kuznetsov hamda A.N. Kuropatkin asarlari orqali mintaqadagi xalqaro munosabatlar, iqtisodiy siyosat va geografik omillar qiyosiy jihatdan o'rganildi. Liu Chjixiao hamda zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan, Sh. Qo'ldashev va N. Kenzheakmet ishlaridan foydalanish orqali Qo'qon-Sin munosabatlarining diplomatik va arxiv materiallari asosidagi talqini kengaytirildi. Tang Ch'i tomonidan nashr etilgan diplomatik hujjatlar esa Qo'qon xonligining rasmiy tashqi siyosiy yo'nalishini aniqlashda muhim manba sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot davomida turli manbalarning o'zaro qiyosiy tahlili amalga oshirilib, ularning ma'lumotlari tekshirildi hamda tarixiy voqealarning xolis manzarasini tiklashga harakat qilindi. Voqealar ketma-ketligi, siyosiy jarayonlar rivoji va iqtisodiy omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqilib, Sharqiy Turkiston omilining geosiyosiy ahamiyati kompleks va tizimli yondashuv asosida yoritildi.

Muhammadalixon hukmronligi davrida "xo'jalar masalasi" bilan bog'liq siyosat izchil davom ettirildi [5;35-b]. Mazkur siyosatning asosiy maqsadi Sharqiy Turkistonda Qo'qon ta'sirini saqlab qolish va uni kengaytirishdan iborat edi. Shu nuqtai nazardan, Qo'qon xonligi savdo aloqalarini mustahkamlash bilan bir qatorda diplomatik vositalardan ham faol foydalandi. Jumladan, 1825-yil 10-fevralda Abduholiq va Javhar boshchiligida elchilar Qashqarga yuborilgan bo'lib, keyinchalik Imomquli ham elchilik missiyasi bilan jo'natilgan [2; 90-b.].

Shu yilning o'zida Mirza Azamatullo va Abdulaholiq boshchiligidagi navbatdagi elchilik ham tashkil etilgan bo'lib, ulardan faqat Abdulaholiqqa Pekinga borishga ruxsat berilgani qayd etiladi. Mazkur elchiliklar oddiy diplomatik aloqalar emas, balki Qo'qon xonligining Sharqiy Turkistondagi savdo-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil strategiyasining bir qismi edi. Chunki bu davrda Sharqiy Turkiston orqali o'tuvchi savdo yo'llari Qo'qon iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Shu boisdan ham Muhammadalixon nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy manfaatlarni ko'zlab, Sin imperiyasi bilan munosabatlarni diplomatik yo'l bilan tartibga solishga intilgan.

Biroq Sharqiy Turkistondagi vaziyat faqat diplomatik yo'l bilan emas, balki harbiy-siyosiy jarayonlar orqali ham shakllandi. Xususan, Jahongirxo'ja harakati ushbu hududdagi kuchlar nisbatini tubdan o'zgartirib yubordi. U Qo'qon hududidan siqib chiqarilgan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida Badaxshon va Oltoy hududlarida kuch to'plab, mahalliy qirg'iz, tojik va boshqa guruhlar bilan ittifoq tuzgan holda Sin imperiyasiga qarshi keng ko'lamli harakat boshladi. Natijada 1826-yilda Qashqar, Yorkend va Xo'tan kabi muhim markazlarning egallanishi mintaqada siyosiy vaziyatni keskin o'zgartirdi [2; 96-b.].

Bu jarayon Qo'qon xonligi uchun yangi siyosiy imkoniyatlar yaratdi. Muhammadalixon Jahongirxo'ja harakatidan foydalanib, Sharqiy Turkistonga harbiy yurish uyushtirdi. Mazkur yurish diniy jihatdan "g'azovot" sifatida asoslab berilgan bo'lib, bu orqali xon o'z hokimiyatini diniy asoslashga erishgan. Shu bilan birga, bu harakat Qo'qon xonligining mintaqadagi ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan siyosiy yo'nalishning muhim qismi edi. Elchiliklar va diplomatik faoliyat kuchaygan bir paytda Sharqiy Turkistondagi siyosiy vaziyat keskin tus ola boshladi. Xususan, Jahongirxo'ja harakati mintaqadagi kuchlar nisbatini tubdan o'zgartirib yuborgan omillardan biri bo'ldi. U dastlab Qo'qon hududidan siqib chiqarilgan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida Badaxshon va unga tutash hududlarda harbiy tayanch yaratib, mahalliy qirg'iz, tojik va boshqa guruhlarni o'z atrofiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi [2; 75-b.].

1826-yilda Jahongirxo'ja qo'shinlari Qashqar atrofidagi hududlarni egallab, Sin qo'shinlariga jiddiy zarba berdi [8; 38-40-b.]. Ayniqsa, mahalliy musulmon aholining ushbu harakatni qo'llab-quvvatlashi uning siyosiy kuch sifatida tez sur'atlarda mustahkamlanishiga xizmat qildi [1; 248 – 249-b.]. Harakatning "g'azovot" sifatida talqin qilinishi esa unga diniy mazmun bag'ishlab, turli ijtimoiy qatlamlarni birlashtiruvchi omilga aylandi. Bu holat Sharqiy Turkistonni nafaqat siyosiy, balki diniy qarama-qarshiliklar maydoniga aylantirdi. Jahongirxo'ja harakatining bunday tezkor muvaffaqiyatlari Qo'qon xonligi siyosatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Muhammadalixon yuzaga kelgan vaziyatni mintaqadagi ta'sir doirasini kengaytirish uchun qulay imkoniyat sifatida baholadi. Shu bois u Jahongirxo'ja harakatidan foydalanib, Sharqiy Turkistonga harbiy yurish uyushtirdi. Mazkur yurish tashqi ko'rinishda diniy jihatdan "g'azovot" sifatida asoslangan bo'lsa-da, uning asl mohiyatida geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlar mujassam edi.

Muhammadalixonning ushbu harakati bir necha maqsadni ko'zlagan edi. Birinchidan, Sharqiy Turkiston orqali o'tuvchi savdo yo'llari ustidan nazoratni qo'lga kiritish; ikkinchidan, Sin imperiyasining mintaqadagi ta'sirini cheklash; uchinchidan, Qo'qon xonligining siyosiy nufuzini oshirish. Shu bilan birga, yurish diniy jihatdan asoslab berilishi xon hokimiyatining asosini mustahkamlashga xizmat qildi. Natijada Muhammadalixon "g'oziy" sifatida e'tirof etilib, uning siyosiy mavqei yanada mustahkamlandi [7; 22-23-b.].

Biroq Qo'qon xonligining Sharqiy Turkistondagi harbiy aralashuvi kutilgan natijani bermadi. Xususan, G'ulbog' qal'asini egallash jarayoni Qo'qon qo'shinlari uchun nihoyatda og'ir kechdi. Qal'a mustahkam mudofaa tizimiga ega bo'lib, uni egallash uchun yetarli darajada puxta harbiy strategiya ishlab chiqilmagan edi. Harbiy tayyorgarlikning sustligi, qo'shinlar o'rtasida muvofiqlashtirishning yetishmasligi hamda zamonaviy qamal texnikasining yo'qligi natijasida ko'plab askarlar halok bo'lgan [6; 480-b.]. Ushbu holat Qo'qon xonligining harbiy tizimidagi tuzilmaviy kamchiliklarni, xususan, markazlashgan qo'mondonlik va taktik rejalashtirishning zaifligini yaqqol namoyon etadi. Mazkur muvaffaqiyatsizlik Sharqiy Turkistondagi kuchlar nisbatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. 1827–1828-yillarda Sin imperiyasi vaziyatdan foydalanib, katta harbiy kuch bilan qarshi hujumga o'tdi va qisqa vaqt ichida mintaqani qayta egalladi. Natijada Jahongirxo'ja qo'lga olinib, Pekinda qatl etildi [9; 140-b.]. Ushbu voqea nafaqat anti-sin harakatining yakunlanishiga, balki Qo'qon xonligining Sharqiy Turkistondagi siyosiy ta'sirining keskin susayishiga olib keldi [4; 1184-b.].

Jahongirxo'ja harakatining bostirilishi va Qo'qon qo'shinlarining muvaffaqiyatsizligi mintaqaviy siyosiy vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Endilikda tashabbus to'liq Sin imperiyasi qo'lga

o'tdi. Bu esa Qo'qon xonligining ilgari olib borgan faol tashqi siyosatini cheklab qo'ydi hamda uni mudofaa pozitsiyasiga o'tishga majbur qildi.

Shundan so'ng Qo'qon xonligi va Sin imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Sin imperiyasi hukumati Jahongirxo'ja harakatida bilvosita ishtirok etganlikda Qo'qon xonligini ayblab, keskin iqtisodiy choralar ko'rdi. Jumladan, Qo'qon savdogarlari Sharqiy Turkiston hududidan chiqarib yuborildi, ularning mol-mulklari musodara qilindi [2; 129-131b.; 4; 1188-1189 -b.]. Bu choralar Qo'qon xonligi iqtisodiyotiga jiddiy zarba berdi. Savdo aloqalarini tiklash zarurati Badaxshon yo'li orqali muqobil karvon yo'nalishlarini shakllantirishga olib keldi. 1829-yilda ushbu yo'l orqali yirik savdo karvonlarining harakatlana boshlagani qayd etiladi [9; 138-b].

Biroq Qo'qon xonligi Sharqiy Turkiston yo'nalishidan butunlay voz kechmadi. Aksincha, 1830-yilda Muhammadalixon ushbu masalaga yana qaytib, Jahongirxo'janing qarindoshi Muhammad Yusufxo'jani qo'llab quvvatladi. 40 minglik qo'shin bilan amalga oshirilgan harbiy yurish dastlab ma'lum darajada muvaffaqiyat keltirgan bo'lsa-da, uzoq muddatli natija bermadi [3; 116-b]. Bunga asosiy sabab sifatida Buxoro amirligi bilan yuzaga kelgan harbiy-siyosiy ziddiyatlar ko'rsatiladi. Ya'ni, Qo'qon xonligi bir vaqtning o'zida ikki strategik yo'nalishda — g'arbda Buxoro, sharqda esa Sin imperiyasi bilan raqobat olib borishga majbur bo'lgan. Bu esa uning resurslarini parchalab, tashqi siyosat samaradorligini pasaytirgan.

Mazkur holat Qo'qon xonligining tashqi siyosatida muhim burilish yasadi. Harbiy yo'l bilan natijaga erishish imkoniyati cheklangan sharoitda diplomatik vositalarga murojaat qilish zarurati tug'ildi. Natijada Qo'qon xonligi va Sin imperiyasi o'rtasida 1832-yilda muhim diplomatik bitim tuzildi. Ushbu bitim nafaqat ikki davlat o'rtasidagi keskinlashgan munosabatlarni yumshatdi, balki mintaqaviy savdo tizimini tiklashga ham xizmat qildi. Bitimga ko'ra, Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda savdo qilish huquqi qaytarildi, boj yig'ish vakolati berildi hamda savdo aloqalari tiklandi [9; 146-b]. Ayniqsa, boj yig'ish huquqining Qo'qon tomoniga berilishi uning mintaqadagi iqtisodiy ta'sirini tiklashga xizmat qilgan muhim omil bo'ldi. Qo'qon xonligi savdo imtiyozlariga ega bo'lgan bo'lsa, Sin imperiyasi o'z hududida siyosiy barqarorlikni ta'minlash hamda "xo'jalar harakati"ni cheklash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, 1832-yilgi bitim Qo'qon xonligi zimmasiga muayyan siyosiy majburiyatlarni ham yukladi. Xususan, Qo'qon tomoni Sharqiy Turkistondagi xo'jalar faoliyatini cheklash majburiyatini oldi [11; 1-47-b.; 11; 185-b]. Bu shart Sin imperiyasining mintaqada ichki barqarorlikni saqlash siyosatining muhim qismi bo'lib, shu bilan birga Qo'qon xonligining tashqi siyosiy imkoniyatlarini ma'lum darajada chekladi. Ya'ni, Qo'qon xonligi endilikda Sharqiy Turkistonda mustaqil harbiy-siyosiy aralashuv olib borish imkoniyatidan mahrum bo'lib, ko'proq diplomatik va iqtisodiy vositalar orqali ta'sir ko'rsatishga majbur bo'ldi.

Ushbu tadqiqot natijalari Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston yo'nalishidagi siyosati izchil va ko'p komponentli strategiya sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Elchiliklar faoliyati faqat diplomatik aloqa vositasi bo'lib qolmay, balki xonlikning savdo-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tizimli siyosatning muhim elementi bo'lgan.

Jahongirxo'ja harakati Qo'qon xonligi uchun muayyan siyosiy imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, bu imkoniyatlardan to'liq foydalanilmagan. Qo'qon siyosati mazkur davrda ikki tomonlama xarakter kasb etib, bir tomondan Sin imperiyasiga qarshi harakatlarni qo'llab-quvvatlash, ikkinchi tomondan esa ushbu jarayonlardan geosiyosiy manfaatlar yo'lida foydalanish bilan tavsiflanadi. Bu esa xonlik tashqi siyosatining amaliy va vaziyatga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Harbiy yurishlar tahlili Qo'qon xonligining harbiy tizimida strukturaviy kamchiliklar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, strategik rejalashtirishning yetarli darajada emasligi, markazlashgan qo'mondonlikning zaifligi va texnik imkoniyatlarning cheklanganligi harbiy muvaffaqiyatsizliklarga olib kelgan. Natijada xonlikning mintaqadagi geosiyosiy mavqei sezilarli darajada zaiflashgan. Mazkur muvaffaqiyatsizliklar iqtisodiy oqibatlar bilan ham kuchaygan bo'lib, savdo yo'llarining uzilishi Qo'qon xonligini tashqi siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur

qilgan. Shu jarayonda Buxoro amirligining vositachi sifatidagi roli kuchayib, mintaqaviy savdo tizimining qayta shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

1832-yilgi bitim Qo'qon xonligining tashqi siyosatida muhim burilish nuqtasi bo'lib, harbiy qarama-qarshilikdan diplomatik muvozanatga o'tish jarayonini ifodalaydi. Bitim murosaviy xarakterga ega bo'lib, iqtisodiy manfaatlarni tiklash bilan birga xonlikning siyosiy mustaqilligini ma'lum darajada cheklagan.


Mazkur vaziyat mintaqadagi kuchlar muvozanatini nisbatan barqarorlashtirgan bo'lsa-da, Qo'qon xonligining umumiy geosiyosiy holatini murakkablashtirdi. Ayniqsa, bu davrda Buxoro amirligi bilan Qo'qon o'rtasidagi raqobatning keskinlashuvi ushbu jarayonni yanada chuqurlashtirdi. Amir Nasrullohning faol harbiy yurishlari Qo'qon xonligiga nisbatan bevosita bosimni kuchaytirib, uning tashqi siyosiy ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqishga majbur etdi. Natijada Qo'qon xonligi bir vaqtning o'zida ikki muhim strategik yo'nalishda — sharqda Sin imperiyasi bilan murakkab diplomatik muvozanatni saqlash va g'arbda Buxoro amirligining harbiy-siyosiy bosimiga qarshi turish vazifasini bajarishga majbur bo'ldi. Bu esa xonlik resurslarining tarqoqlashuviga hamda tashqi siyosatning vaziyatga bog'liq holda olib borilishiga olib keldi.

Umuman olganda, Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston yo'nalishidagi siyosati harbiy, diplomatik va iqtisodiy omillarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida olib borilgan bo'lsa-da, uning samaradorligi ichki resurslar va tashqi siyosiy bosim o'rtasidagi murakkab muvozanat bilan belgilanib borgan.

XIX asrning 20–30-yillarida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi munosabatlarda Sharqiy Turkiston muhim o'rin tutgan. Bu hudud iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi raqobatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Jahongirxo'ja harakati mintaqadagi vaziyatni o'zgartirib, Qo'qon xonligi uchun ayrim imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, u izchil qo'llab-quvvatlanmagani va harbiy kamchiliklar sababli barqaror natija bermadi. Natijada Sin imperiyasining ustunligi tiklanib, Qo'qonning ta'siri cheklangan. Bu jarayon savdo aloqalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, xonlikni siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur etdi. Shu davrda Buxoro amirligi vositachi sifatida muhim rol o'ynagan.

1832-yilgi Qo'qon–Sin bitimi harbiy to'qnashuvlardan muzokaralarga o'tishni bildiradi. U savdoni tiklashga xizmat qilgan bo'lsa-da, Qo'qon xonligining mustaqilligini ma'lum darajada cheklagan. Umuman, Sharqiy Turkiston bu davrda mintaqadagi asosiy raqobat markazi bo'lib, Buxoro va Qo'qon o'rtasidagi munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan.



Qo'qon–Qashqar savdo yo'li.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гуревич Б.П. Международные отношения в Центральной Азии в XVIII – первой половине XIX в. – М.: Наука, 1983. – 309 с.
2. Кузнецов В.С. Экономическая политика цинского правительства в Синцзяне. – М.: Наука, 1973. – 173 с.
3. Куропаткин А. Н. Кашгария (историко-географический очерк страны). – СПб.: Русское географическое общество, 1879. – 435 с.
4. Лю Чжисяо. Уйғур тарихи. – Пекин: Миллатлар нашриёти, 1987. – 1189б.
5. Мирза-Шемс Бухари. Записки о некоторых событиях в Бухаре, Хоканде и Кашгаре. – Казань, 1861.- 190 с.
6. Мухаммад Хакимхон. Мунтахаб ат-таворих // Материалы по истории Средней и Центральной Азии. X–XIX вв. – Ташкент, 1988. – С. 277.
7. Точир Хучандӣ. Гаройиби сипох / Мураттиб Саъдуллохи Асадуллох. – Хучанд, 1993. – 56 с.
8. Вэй Юань. Шэн юань. Шэн-уцэн. Гл. 4. Война Джахангиром. Перевод китайского церемонах Палладдая. – Пекин., 1907. – 103 б.
9. Қўлдашев Ш. Қўқон хонлиги ва Хитой (Чинг империяси) ўртасидаги дипломатик муносабатлар. – Тошкент: ТДШИ, 2019. – 240 б.
10. Kenzheakhmet N. Qing Archival Materials on the Qazaqs (1729–1910) and Khoqands (1827–1861) in the National Palace Museum in Taipei // Uluslararası Türkçe Tarihî Metin Araştırmaları Sempozyumu (Metin Yayımı, Kataloglama, Dijitalleştirme) Bildirileri. – Алматы: Носа Ahmet Yesevi Üniversitesi Avrasya Araştırma Enstitüsü, 2019. – С. 185.
11. Tang Ch’i, „Two Diplomatic Documents From the Khokend Khanate to Ch’ing Empire in the Mid-19th Century. 国立政治大学学报, 第50期, 1984, p.47.